


ҚИШЛОҚ ХҲҲЖАЛИГИДА  
ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР  
ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМИ

мавзусидаги Республика миқёсидаги  
хорижий олимлар иштирокида  
онлайн илмий-амалий анжуман

ТЎПЛАМИ

Бухоро, 2020 йил 17-18 декабрь



2 та.



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**


**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ  
УНИВЕРСИТЕТИ**

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЭКОЛОГИК  
МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМИ**

**мавзусидаги Республика миқёсидаги хорижий олимлар иштирокида  
онлайн илмий-амалий анжуман**

**ТЎПЛАМИ**

**Бухоро, 2020 йил 17-18 декабрь**



**2-rasm. Purkagichning ishlash sxemasi.**

1-qiyosh batareyasi; 2-kontroller; 3-akkumulyator batareyasi (AKB); 4-inventori (12 V ni 220 V ga aylantiruvchi fotoelektrik qurilma); 5- 1V-0,9M nasos; 6-100 l suv idishi; 7-purkagich. Jihozni o'rnatish: 1-6 jihozlar traktorga o'rnatiladi, bosim shangi orqali 7-purkagich ish organda o'rnatiladi.

Tavsiya etilayotgan ish organining mavjudlardan farqli tomoni shundaki uning purkagichli ish jihozlari bilan jihozlanganida va tuynukli-drenaj ning mustahkamligi oshirilib, o'pirilmasdan 2-3 yil samarali ishlashi

ta'minlanganligi bilan ijobiy tomondan farqlanadi. Bu esa o'z navbatida yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda ya'ni yer osti sizot suvlarini tuynukli-drenaj ka va u orqali drenaj-quvurlarga shuningdek markaziy kollektor drenajlariga oson yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uning afzalligi, iqtisodiy samara berishi ya'ni tuproq tarkibidan zararli tuzlarni yer osti sizot suvlari bilan chiqarib yuborilishi va qishloq xo'jalik ekinlari masulotlarining hosildorligini kamida 5-7 s/ga oshirilishi bilan bir vaqtda bu qurilmani meliorativ holati yomon yerlarda keng qo'llanilishida ijobiy samara berish tavsiyasiga ega bo'lganligi bilan mavjudlardan ajralib turadi. Shu sababli uning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va qishloq xo'jaligida melioratsiya ishlarini bajarilishida keng qo'llanilishini tavsiya etamiz.

**Xulosa:** Biz tomonimizdan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida yuqorida tavsiya etilgan maxsus suyuqlik aralashmasini meliorativ holati yomon ya'ni turli sho'rlanish darajasiga ega bo'lgan yerlarda belgilangan ishlov berish chuqurligida tuynukli-drenaj ochuvchi qurilma yordamida hosil qilinadigan tuynukli-drenaj va uning mustahkamligini oshirish uchun uning tarkibi yer ustidagiga nisbatan ikki barobar ortiq miqdorda qo'llanilishi tajriba sinovlarining natijalariga asosan aniqlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D.G.Axmedjanov. Vodobergayushie texnologii poliva xlopatnika s ispolzovaniem interpolimernyx kompleksov: Avtoref. dis. kand. tex. nauk. Tashkent: TIMI, 2011. -43 s.
2. Juraev F.U., Norova D.T. Texnologiya primeneniya drenajno-krotovyx orudie s orqyskivatelem. Zamonaviy ishlab chiqarishni energiya ta'minoti. Respublika ilmiy – amaliy anjumanining materiallari to'plami II-tom. Buxoro 2014. s.398-400.
3. F.U.Juraev, G.X.Karimov. Novye orudiya i texnologiya ix primeneniya s orqyskivatelem. Jurnal «Molodoy uchenyy» № 20 (79). Kazan. 2014. s.201-206.

## TUPROQNI INSON HAYOTIDAGI O'RNI

**B.I.Jabborov, Z.N.Tilakova**

*Buxoro davlat universiteti*

**1.Tuproqning inson hayotidagi o'rni.** Tuproq tashqi bir muhitning asosiy bir bo'lagidir. Butun tirikchilik, jonivorlarning tirikchiligi, odamzodning hayoti tuproq bilan bog'langan. Odam va hayvonlarning salomatligi tuproqning sanitariya holatiga juda bog'liqdir.

Mutaxassislarning fikricha, tuproq tog' jinslarning ustki qavatidir. V.R.Vilyams fikricha, tuproq juda murakkab mineral va organik moddalar aralashmasi bo'lib, unda hech qachon biror minut ham tinchlik holati bo'lmagan, undagi hayot va tirik jonlar bir-biri bilan bog'lanib ketgan, tuproqning o'zi hayot bag'ishlaydi va uning tinchlik, harakatsiz holati o'limdan iborat.

Texnika taraqqiyoti yerning relefini o'zgartirib yubormoqda. Ba'zi bir joylar chuqurlashib, ba'zi bir joylarda baland tepalliklar paydo bo'lmoqda. Hozir korxonalar, kon va boshqalardan ko'plab chiqindilar chiqmoqda. Misol uchun Angren ko'mir koni, Olmaliqdagi rangli metallar koni va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Tuproqning tarkibida juda ko'p jonivorlar mavjud bo'lib, ular orasidagi eng muhimi – mikroorganizmlardir. Tuproq yuzasida mikroorganizmlar quyoshning ultrabinafsha nurlari ta'sirida qirilsa, aksincha tuproqning 5 –10 sm chuqurligida ular ko'payib taraqqiy etadilar, quyosh nuridan saqlanadilar, tuproq mikroblarni ovqat, namlik va havo bilan ta'minlaydi. Tuproq sharoiti mikroorganizmlarning rivojiga, tuzilishiga, sharoitiga va boshqa omillariga ta'sir ko'rsatadi.



Mikroorganizmlardan tashqari tuproqda bir hujayrali sodda hayvonlar, mo'g'orlar, chuvalchanglar, bakteriofoglar, viruslar, kana va pashshalar, hasharotlarning tuxumlari va ulardan chiqqan qurtlari va hokazolar yashaydi. Shu jonivorlarning mavjudligi tuproqqa tushgan organik moddalarning parchalanishi jarayonlarini faollashtirib, tuproqni chiqindilardan tozalanishiga yordam beradi.

Tuproqning tabiiy holatini sanoat korxonalaridan tashqi muhitga tashlanayotgan chiqindilar buzmoqda. M.Gusev, A.Kamildjanov, V.Morozov va boshqa olimlar keltirgan dalillarga qaraganda sanoat korxonalari joylashgan joydan uzoq masofalardan 2 dan 12 kmgacha va undan uzoqroq bo'lgan joylarda simob, margimush, fluor, qo'rg'oshin, mis, marganes, temir va boshqa bir qancha elementlarning tuproqda topilgani aytiladi, eng xavflisi shundaki, ular tuproqda yig'ila borib o'simlik tanalariga, ularning hosiligiga o'tib zararlaydi.

O'simliklarning tarkibida sanoat chiqindilarining ko'p miqdorda topilishi hayvon va insonar sog'lig'i uchun xavflidir, bunga misol qilib Tojikiston hududida joylashgan alyumin zavodining chiqindilari Sariosiyo tumanining ifloslanishiga va tuproqda, suvda, o'simlik, hayvon tanalarida fluor moddasining ortib ketganligini keltirish mumkin.

**2. Tuproqning asosiy xossalari va uning gigienik jihatlari.** Tuproqlarning barchasini gigienik nuqtai nazardan hisobga olib, ularning foydalanishiga qarab 3 turga bo'linadi:

1. Turar joylardan tashqari bo'lgan tabiiy tuproq. Bunday tuproqlardan qishloq xo'jaligi o'simliklarini ekish uchun, yangi qurilishlar uchun foydalaniladi.

2. Turar joylar uchun yaratilgan sun'iy tuproq, bunday tuproqlar aholi turar joylaridahosil bo'lgan, sanoat korxonalaridan chiqqan axlat va chiqindilar mavjud yerlardir.

3. Sun'iy qoplama bilan, ya'ni asfalt, beton va shag'al bilan qoplangan yerlar.

Tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra bir necha guruhlarga bo'linadi: qumli, qumloq tuproqlar, qumoq tuproqli, ser tuproqli.

Suv parchalanish zonasidan o'tib, filtratsiya zonasida filtrlanadi. Bu tuproqning eng kuchli qatlami bo'lib unda filtrlangan suvlar ishlatilishi mumkin. Yerning shu qatlami 1 – 2m bo'lib atmosfera yog'ingarchiligidan paydo bo'lgan suvlar yil davomida to'planib qoladi. Faqatgina bu qatlamning hamma g'ovaklari yog'ingarchilik tufayli to'lgandan so'ng ortiqcha suv tuproqning pastki qavatlariga filtirlanib o'tishi mumkin. Bu suvlar qatlamning suv o'tkazmas joyida to'planib, yer osti suvlarini (quduq) hosil qiladi. Ammo bu yer osti suvlari kapillyar ingichka suv yo'li bilan yuqoriga ko'tariladi, bu esa tuproqni g'ovaklarining kam - ko'pligiga bog'liq. Bu zona suvning kapillyarlar bo'yicha ko'taradigan zonasidir.

**3. Tuproqning xossalari. Tuproqning xossalari quyidagilar: A)Tuproqning g'ovakligi.** Tuproqning g'ovakligi bu unda mavjud g'ovaklarning yig'indisi bo'lib hajm birligi bilan aniqlanadi. Tuproq g'ovagi qancha yuqori bo'lsa, tuproqning filtrlash xususiyati shuncha pastroqdir, demak bunday tuproqni sog'lom tuproq deb aytilmaydi. Masalan, qum tuproqning g'ovakli 40 foiz, torfniki 82 foizdir. Ammo, g'ovaklarning kata – kichikligi uning mexanik tarkibiga bog'liq. Tuproq donachalari yirikroq bo'lsa, g'ovaklari shuncha ko'p bo'ladi. Eng katta g'ovaklar toshloqi tuproqda bo'ladi. Eng kichik g'ovakli loy tuproqdadir.

**B)Tuproqning havo o'tkazuvchanligi.** Tuproq qatlamining havo o'tkazishi uning g'ovakligiga, g'ovaklarning kattaligiga bog'liq. Agar bir minut davomida mayda qumdan o'tgan havoni birlik deb qabul qilinsa, shunday sharoitda o'rtacha bo'lgan qumdan 84 hajmda havo o'tadi, yirik qumdan – 961 hajm, mayda shag'al toshdan – 5195 hajmda havo o'tadi. Tuproqning havo o'tkazgichligi barometrik bosim oshishi bilan ortib boradi, tuproq namlik qatlamining qalinligi, aksincha, havo o'tkazishni kamaytiradi. Tuproq g'ovaklari suvda to'lsa uning havo o'tkazishi juda pasayadi. Agar hamma g'ovaklar suvga to'lsa usti yaxlasa havo o'tishi nolga tenglashadi.

**V)Tuproqning filtrlash xususiyati.** Tuproqning suv o'tkazuvchanligi, deganda uning yuzadan keladigan suvning shimib olishi va o'tkazishi tushuniladi. Tuproqdagi suvning shimilishi filtrlash jarayonining birinchi bosqichi, bunda hamma g'ovaklar suvga to'ladi. To'yingan tuproq suvni og'irlik kuchi ta'sirida uni harakatga keltirib, ikkinchi, ya'ni filtrlash bosqichiga o'tadi. Tuproqning suv o'tkazgich xususiyati tuproqdagi suvlarni yig'ishga, yer osti suv xavzalarini hosil qilishda katta ahamiyatga egadir.

**G)Tuproqning suv sig'imi.** Tuproqning suv sig'imi uning shimish va kapillyar kuchlar vositasida o'zida namlikni ushlab qolish xususiyatidir. Tuproqning suv sig'imi filtr suvlarining shimilish kuchi sababli ro'yobga chiqadi. Tuproq suv sig'imi uning g'ovak o'lchamlari qanchalik kichik bo'lsa va hajmi qanchalik ortiq bo'lsa, sig'imi ham katta bo'ladi. Shuning uchun ham tuproqning donadorligi qancha yuqori bo'lsa, uning suv sig'imi shuncha katta. Tekshirishlar shuni



ko'rsatadiki, o'rtacha shag'al 7 foiz suv ushlaydi, yirik qum – 23 foiz va mayda qum – 65 foizgacha suv ushlashi mumkin.

**D) Tuproqning kapillyarligi.** Tuproq qatlamlaridan kapillyar naylar yordamida namlikni yuqoriga ko'tarilishiga tuproqning kapillyarligi, deyiladi. Tuproqning donadorligi kam bo'lsa, u kam g'ovakli va kapillyarlarga boy hisoblanaadi, demak suvning ko'tarilishi darajasi ham yuqori. Tuproq donadorligi yirik bo'lsa, suvning pastdan yuqoriga ko'tarilishi tezroq kechadi, ammo juda yuqoriga ko'tarila olmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Simon A. Levin editor —The Princeton guide to Ecology 2009 by Princeton University
2. Press Published by Princeton University Press, 41 New Jersey 08540 William Street
3. Michael Begon —Ecology from individuals to ecosystems fourth edition published 2006
4. Printed and bound in the United Kingdom by CPI Bath Press
5. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T., "O'zbekiston", 2003 y.
6. Egamberdiev R., Eshchanov R. —Ekologiya asoslari, T., —Zar qalam, 2004 y.
7. Qosimova S.T. va boshqalar. —Atrof-muhitni muhofaza qilish va shahar iqlimshunosligi (o'quv qo'llanma) T., Istiqlol, 2005 y.
8. Ergashev A. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T., —Yangi asr avlod, 2005 y.
9. Ergashev A., Yulchieva M., Ahmedov O., Abzalov A., Ekologiya, Toshkent, 2010 y.
10. Shodimetov Y., Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T., "O'qituvchi", 1994 y.

УЎТ:528.06

### ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛҒОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ Ш.Я.Сатторов, А.М.Абдуллоев, Ф.Шарипова


*Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти*

**Аннотация.** Ушбу мақолада геодезик ва геоинформатик ишларни бажаришда илғор технологиялардан фойдаланиш ҳамда ушбу дастурий таъминот афзалликлари ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар.** Дала, GPS, прёмник, дастур, технология, топография.

Ўзбекистон Республикаси маданий мерос объектларини ишлаб чиқаришини янада жадаллаштириш ва ривожлантириш бўйича ҳукумат томонидан олиб борилаётган давлат сиёсатини амалга оширишда давлат геодезик ва геоинформатик ишларни замон талаби доирасида юритилиши катта аҳамият касб этади. Шу боис Республикамизга бир қатор замон талаби доирасидаги техника ва технологиялар инвесторлар томонидан инвестиция киритиш йўли орқали кириб келмоқда.

Дунёда етакчи геодезик асбобларни ишлаб чиқарувчи фирмалар томонидан замонавий оптик электрон асбоблар, электрон рақамли нивелир билан биргаликда GPS прёмниклари ишлаб чиқарилмоқда.



**1-расм. GPS приёмникнинг сунъий йўлдошлари.**

Приёмниклар асосан АҚШ, Европа, Россия ва Хитой давлатлари томонидан ишлаб чиқарилиб, халқ хўжалиги, геодезия, картграфия ва транспорт навигацияси мақсадлари учун



2. Яйлов зоналарининг сони ва ҳажми-маълум яйловлар, бошқа яйлов участкалари дам олишлари ва ўсишини аниқлаш.

3. Самарали-озуқанинг натижавий потенциаллини максимал даражада ошириш ва озуқа сифати ва ҳосилдорлигини ошириш.

4. Самарали - ўт ёки эм-хашак экинларини хайвонлар томонидан гўнг билан тўғридан-тўғри йиғиб олиш жараёнида тупрокка бевосита қайтариш.

5. Яйловларни бошқаришни максимал даражада ошириш учун доимий ва ко'чма то'сиклар бирикмасидан фойдаланиш.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг "Яйловлар тўғрисида"ги қонуни 2019 йил 20 май

2. Ўзбекистон Республикаси ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитасининг Ўзбекистон Республикаси Ер ресурсларининг ҳолати тўғрисида миллий ҳисоботи. 2019 йил.

3. Худойбердиев Ф.Ш. "Яйловларни яхшилаш, янги яйлов барпо этиш ва яйловлардан самарали фойдаланиш усуллари ишлаб чиқиш" мавзусидаги илмий мақола. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси. 2019 йил 17-20 б.

4. Каримов Э.Қ., Худойбердиев Ф.Ш. "Ер ресурсларидан самарали фойдаланишда табиий яйлов ўсимликлари ҳосилдорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар" мавзусидаги илмий мақола. "Ўзбекистон замини" Илмий журнал. 2019 йил 43б.

5. Ф.Ш.Худойбердиев "Яйловлардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилишни такомиллаштириш" мавзусидаги илмий мақола. "Ер ресурсларини бошқариш ва муҳофаза қилишда инновацион ёндашувлар: муаммо ва креатив ечимлар" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани.

6. Ярим чўл (адир) яйловларда оқилона фойдаланиш ва ҳосилдорликни ошириш бўйича тавсиялар. Қурокчил ҳудудларда кишлоқ хўжалиги тадқиқотлари халқаро маркази (ИСАРДА), Қоракўл ва чўл экологияси илмий-тадқиқот институти. Тошкент-2016.

### TUPROQ MUHITINI IFLOSLANTIRUVCHI MANBALAR

**B.I.Jabborov, Z.N.Tilakova, N.K.Hamroqulova**

*Buxoro davlat universiteti*

**1. Tuproqning ifloslanishi.** Tuproqning ifloslanishi – inson hayot jarayonining oqibatida xo'jalik va sanoat chiqindilarining kelib chiqishi natijasidir. Shaharlarda, ishchi posyolkalarida, aholi turar joylarida juda ko'p miqdorda har xil ifloslantiruvchi chiqindi axlat moddalarining tuproqda yig'ilishi natijasida ular kasallik tarqatuvchi manbalarga aylanib qoladi. Ifloslantiruvchi moddalar ochiq suv havzalarini, yer osti suvlarini zararlaydi, qishloq xo'jalik ekinlariga tushib ular orqali hayvon, odam organizmiga o'tadilar. Qolaversa, tuproqni ifloslanishi oqibatida tashqi muhit ifloslanadi.

Tuproqni ifloslantiruvchi, kasallik qo'zg'atuvchi mikroflorolarni shartli ravishda 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. Odamlardan ajraladigan va boshqa shaxslarga tuproq yoki oziq ovqatlar orqali o'tadigan biologik omil. Bu guruhga ichak bakteriyalari, bir hujayralilar, geogelmintlar kiradi.
2. Hayvon chiqindilari bilan ifloslangan tuproq orqali odamga o'tadigan biologik agentlar.
3. Patogen mog'orlar, botulizm va boshqa tuproqning tabiiy yashovchi mikroorganizmlar.

Tuproqlarni zaharli moddalar bilan kuchli ifloslanishiga asosiy sabab sanoat korxonalarining qattiq va suyuq chiqindilari hisoblanadi.

Sanoat korxonalaridan turli zararli moddalar chiqadi, jumladan, rangli metallurgiya sanoatidan – rangli metal tuzlari, mashinasozlik korxonalaridan – sianidlar, berilliy brikmalari, margimush va boshqalar, plastmassa ishlab chiqarish korxonalaridan – benzin, efir, fenol, metilakrilat va boshqalar; azot sanoatidan – polisitrol, xlorbenzol kanserogen smolalar va boshqalar, selluloza – qog'oz ishlab chiqarish sanoatidan – fenol, metil spirit, skipidlar va boshqalar.

**2. Tuproqda o'z-o'zini tozalash jarayoni.** Har kuni har soatda tuproqqa tushadigan ko'p miqdor chiqindi – axlatlar, ularning tarkibidagi mikroblar, viruslar, gijja tuxumlari, organik moddalarning chirishi inson hayotini allaqachonlar tugashi yoki chidab bo'lmaydigan ahvolga solib qo'yishi mumkin edi. Faqat tuproqda bo'ladigan juda kuchli o'z – o'zini tozalash biologik jarayoni tufayli bunday falokatli, xavfli holatlarning oldi olonadi. Uning ustiga odamlarning o'zlari ham zararli



chiqindilarni zararsiz holatga, ko'p chiqindilardan xalq xo'jaligida borgan sari takomillashtirilmoqda foydalanish mumkinligi tasdiqlanmoqda.

Tuproqda tabiiy holatda kechadigan o'z - o'zini tozalash jarayoni sanitariya va epidemiologiya nuqtai nazarida asosiy va o'ta zarur jarayondir.

O'z - o'zini tozalash jarayoni:

- organik moddalar minerallashadi va oxir pirovardida mineral tuzlarga aylanadi;
- patogenli bakteriyalar, ayniqsa ichak bakteriyalari guruhiga va enteroviruslar o'ladi;
- gijja tuxumlari yashash qobilyatini yo'qotadi, so'ngra o'ladi.

O'z - o'zini tozalash jarayoni juda murakkab bo'ladi, bu ko'p jihatdan tuproq strukturasi tuzilishiga bog'liqdir.

Tuproq normal holatda mayda yumaloq donachalardan iborat, katta kichikligi 2-10 mm bo'lib, oralarida bo'shliq g'ovaklar mavjud, ular tuproq donachalarini havo bilan ta'minlaydi, tuproqni shamollashiga va namlanishiga yordam beradi, bu esa o'z navbatida, tuproqda kechadigan jarayonlarni jadallashtirishga imkon tug'diradi.

Tuproq donachalari o'z atrofidan biologik parda bilan o'raladi, bu parda filtrlanish jarayonida o'ziga erigan va qalqiydigan moddalarni shular bilan birga bakteriyalarni shimadi.

Tuproqda organik moddalarning parchalanishi ikki bosqichda o'tadi: oldin moddalarning minerallashuvi yuz beradi, keyin esa nitrifikasiya bosqichlarini o'tadi.

**3. Turar joylarni tozalashning gigienik va epidemiologik ahamiyati.** Shahar, posyolka va qishloqlardagi turar joylarni toza tutishning epidemiologik va gigienik ahamiyati juda katta. Turar joylarni tozaligi, obodonligi, irrigatsiya ariqlaridan suvlarning oqib turishi, daraxtzor va ko'kalamzorlarning mavjudligi yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Turar joylarni tozaligini saqlash va tashkil qilishda rejali, tashkiliy, sanitar - texnik va xo'jalik tadbirlari ishlab chiqiladi. Bunday tadbirlarni amalga oshirishda sanitariya nazoratini to'g'ri uyushtirishning epidemiologik ahamiyati juda katta.

Shahar va qishloqlarning aholi yashaydigan joylarda turli xo'jalik chiqindilarini va axlatlarning to'planishi patogen mikroblar ko'payishiga olib keladi. Bu esa kishilar sog'ligiga putur yetkazadi.

Aholi turar joylarini toza tutish uchun chiqindi axlatlarini o'z vaqtida yig'ish, olib chiqib ketish va zararsiz holatga keltirish hamda ba'zi bir chiqindilarni (qog'oz, latta, paxta, temir, shisha, plastmassalarni va oynalarni) qayta ishlash uchun jo'natish va utilizatsiya qilish zarur. Shu bosqichlardan birortasi bajarilmay qolsa, demak tozalikni saqlash qiyin bo'ladi.

Axlatlar tezda zararsizlantirilmasa, u tashqi muhitni ya'ni Atmosferani, suv havzalarini tuproqni, oziq - ovqatlarni, binolarni korxonalarini va boshqalarni zararlaydi.

Uy - xo'jaligi axlatlari, oziq - ovqat chiqindilari va boshqalar juda ko'p organik moddalarni ushlagani uchun tez chiriq boshlaydi. Oqibatda turli gazlar: ammiak, serovodorod, metan, indol, skatol va boshqalar paydo bo'ladi. Yog'ingarchilik oqibatida yer yuzasidan yuvilib daryolarni, kichik ariq suvlarini, ko'l suvlarini ifloslantiradi. Suyuq chiqindilar - najas, siydik hojatxonalaridan yer osti suvlariga sizilib o'tib ularni ifloslantirilishi mumkin. Goho chiqindi axlatlarda, turli mikroorganizmlarning mavjudligi va ularning uzoq vaqt yashashlari aniqlanadi. Jumladan, qorin tifi, paratif, ichburuq, sil, kuydirgi va boshqalar axlatlar tarkibida uchraydi. Enteroviruslar ham tashqi muhitda uzoq vaqt yashaydilar.

**Patogen mikroblarning tuproqda yashay olish vaqti.**

Kasal qo'zg'atuvchi infeksiyalar	Axlatlar	Yashash vaqti: kun hisobida
Vabo vibrioni	Najasda	20-210
	Hojatxona chiqindisida	7-12
	Chiqindi suvlarda	2-15
Qorin tifi tayoqchasi	Najasda	30-100
	Hojatxona chiqindisida	30-150
	Chiqindi suvlarda	6
	Oshxona chiqindilarida	4
	Uy supurindisida	42
Paratif tayoqchasi	Oshxona chiqindilarida	24
	Uy supurindisida	107
Ichburuq tayoqchasi	Oshxona chiqindilarida	5



	Uy supurindisida	24
Tuberkulyoz mikrobi	Balg'amda	120-200
Kuydurgi tayoqchasi	Uy supurindisida	80

Axlat va chiqindilar faqatgina turli infeksiyon va gijja kasalliklarini keltirib chiqarib qolmay, ular odamlarda hazar qilish, ko'ngil aynish holatini keltirib chiqaradi.

Tabiiyki, har qanday holatda ham madaniyatli kishilar axlatlardan tezroq xoli bo'lishlikni istaydi.

Ammo, axlatlardan maqsadga muvofiq foydalanish mumkin:

- Uy axlatlarida ko'pincha foydali utillar bo'ladi.
- Axlat yoqish o'choqlardan ko'p miqdorda issiqlik energiyasi, shlak va boshqa chiqindilar ajralib chiqadi. Ulardan xalq xo'jaligida, qurilishda foydalanish mumkin.
- Oziq - ovqat qoldiqlarini fermerlarga ozuqa sifatida foydalanish mumkin.
- Najas, siydik, axlat go'nglar o'simliklar uchun qimmatbaho o'g'itli moddalar: tarkibida fosfor, kaliy va azot mavjud bo'ladi, demak ularni qishloq xo'jaligida turli maqsadlarda ishlatish mumkin.

Turar joylarda yig'ilgan axlatlarni zararsiz holatga keltirib turilsa, tozalash sistemasi foydali sohaga aylangan bo'lar edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Simon A. Levin editor —The Princeton guide to Ecology 2009 by Princeton University
2. Press Published by Princeton University Press, 41 New Jersey 08540 William Street
3. 2. Michael Begon —Ecology from individuals to ecosystems fourth edition published 2006
4. Printed and bound in the United Kingdom by CPI Bath Press
5. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T., "O'zbekiston", 2003 y.
6. Egamberdiev R., Eshchanov R. —Ekologiya asoslari, T., —Zar qalam, 2004 y.
7. Qosimova S.T. va boshqalar. —Atrof-muhitni muhofaza qilish va shahar iqlimshunosligi (o'quv qo'llanma) T., Istiqol, 2005 y.
8. Ergashev A. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T., —Yangi asr avlod, 2005 y.
9. Ergashev A., Yulchieva M., Ahmedov O., Abzalov A., Ekologiya, Toshkent, 2010 y.
10. 8. Shodimetov Y., Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T., "O'qituvchi", 1994 y.

### БЕЛОБОЯЛЫШЕВАЯ (SALSOLETA ARBUSCULAE) И СИНГРЕНОВАЯ (ASTRAGALUS VILLOSISSIMUS) ФОРМАЦИЯ ЮГО-ЗАПАДНОГО КЫЗЫЛКУМА

К.А. Муталов

Чирчикский Государственный педагогический институт

**Введение:** Пустынные пастбища Кызылкума играют важную роль в развитии отгонного животноводства Республики. Они характеризуются очень низкой и крайне неустойчивой урожайности (0,5-3,0 ц/га). Согласно предварительным подсчетам флоры Кызылкума насчитывается примерно 1050 видов. Пастбища с участием кустарниками например, с Боялышем и Сингреном. Белый боялыш-Salsola arbusculae галофитный кустарник, до 80 см высоты с опадающими суккулентными листочками широко распространен на серо-бурых почвах Южного Кызылкума (Момотов, 1961, 1973; Гранитов, 1964). Биология, экология и флористический состав его хорошо изучены (Запрометова, 1959; Коньчева, 1963; Турсунбаев, 1970). Выделены (Момотов, 1973) его формы по приуроченности к легкосуглинистым и песчаным серо-бурым почвам. По толерантности в районе исследования выделены гемипсаммофитные белобоялышники, представленные ассоциациями: туранопольно-белобоялышевой, сингреново-партеково-белобоялышевой, кейреково-польно-белобоялышевой, сингреново-белобоялышевой, которые связаны с маломощными выровненными песками, мощность которых доходит до 20-30 см, а далее начинается уплотненный горизонт с каменисто-щебнистым песком с гипсом.

**Методы и объекты исследований:** В изучении растительного покрова Кызылкума мы придерживались по общепринятой геоботанической методике. Нами описаны в Южном Кызылкуме боялышевая ассоциация, которое относится к кустарниковой растительности с участием разными жизненными формами растительности таких как: кустарниками, кустарничками, двулетниками и однолетними разнотравьями, здесь боялыш всегда доминирует на первом ярусе. Боялыш по питательности относится к растениям среднего качества, листья и зеленые побеги боялыша охотно поедаются овцами осенью и удовлетворительно-зимой и весной



таъминотида ишлаб чиқиш	
<b>И.Н.Муродова, М.Р.Муродова.</b> Ер тузиш ва ундан фойдаланиш.	314
<b>М.Д.Зарипова.</b> Экологическая безопасность промышленного производства.	316
<b>Д.Амонова.</b> Тупрокнинг радиоактив моддалар билан ифлосланиши ва инсон саломатлигига таъсири.	318
<b>Ғ.Ғ.Ҳамроев, С.С.Тўраев.</b> Бухоро вилояти шароитида берч тупрокларда пуркагичли туйнукли-дренаж ҳосил қилувчи қуримани тавсифи.	319
<b>Б.И.Жабборов, З.Н.Тилакова, Н.К.Ҳамроқулова.</b> Тупрок муҳитини ифлослантирувчи манбалар.	321
<b>Ш.Я.Сатторов, А.М.Абдуллоев, Ф.Шарипова.</b> Геодезик ва геоинформатик ишларни бажаришда илғор технологиялардан фойдаланиш.	323
<b>Э.Қ.Каримов.</b> Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларнинг ҳолати ва улардан самарали фойдаланиш	325

#### IV ШЎЪБА

### ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЕТИШТИРИШДА ТУПРОҚШУНОСЛИКНИНГ ЎРНИ ВА СОҲАДАГИ МУАММОЛАР, МАҲСУЛОТ САҚЛАШ ВА ҚАЙТА ИШЛАШНИНГ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

<b>Р.О.Орипов, М.Қ.Эшмуродова.</b> Пахтачиликда қўшқаторлаб экиш самарадорлиги.	329
<b>С.И.Ахмедов, У.Э.Умурзоқова.</b> Ўсимликларни паразит бегона ўтига қарши курашнинг биологик ва иқтисодий самарадорлиги.	331
<b>Ш.Ҳ.Тўхтаев, М.Я.Ярашова.</b> Тупрокда учрайдиган кузги тунламга қарши қўлланиладиган гербицидларни самарадорлиги.	333
<b>Х.Ж.Хурсанов, Э.У.Умурзаков.</b> Ғўза тунламини тамаки маҳсулдорлигига таъсири ва ундан ҳимоялаш чоралари.	334
<b>Ш.Х.Тўхтаев, Ф.А.Ганиева.</b> Пахта екинларига кузги тунлам капалаклари томонидан тухум қўйилишини камайтиришга гербицид қўллашнинг турли усулларининг таъсири.	336
<b>С.И.Махсудов.</b> Ғўзанинг “Шарк” нави агротехнологияси.	337
<b>С.А.Муродов, Т.А.Дехқонов, Н.И.Раҳимова, М.Х.Нарзуллаева.</b> Ўзбекистоннинг фойдали ўсимликлари ва уларнинг аҳамияти.	338
<b>М.Л.Икрамова, Б.Н.Рахматов, Р.Юнусов, М.Ф. Каримова.</b> Влияние универсальнодействующей композиционной суспензии на урожайность и качество зерна в условиях Бухарской области.	340
<b>О.А.Пўлатов, Э.У.Умурзоқов.</b> Самарқанд вилояти тоғ олди ҳудудида грек ёнғоғининг зараркундалари ва уларни микдорий сонини бошқариш.	343
<b>А.А.Отажонов, С.А.Муродов.</b> Бодомда учрайдиган замбуруғли касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари.	345
<b>И.Сулаймонов, О.Абдиева, М.Муталибхонова, М.Азимжонова.</b> Такрорий экилган ош лавлаги билан тупрокнинг сув ўтказувчанлиги орасидаги боғлиқлик.	347
<b>А.М.Батталов, Б.Н.Рахматов, М.Л.Икрамова.</b> Выведение безгоссипольного, тонковолокнистого сорта хлопчатника – Бухара-9/1 для получения экологически чистого продукта.	348
<b>Б.С.Исламов.</b> Особенности цветения кузины войлоченькой ( <i>Cousinia tomentella winkl.</i> )	350
<b>Н.Н. Турсунова.</b> Озик-овқат маҳсулотлари хавфсизлигини таъминлашда соя донининг ўрни.	354
<b>Ш.Ҳ.Тўхтаев, З.Алимова.</b> Ғўза ўсимлигидаги ўргимчакканага қарши кураш.	355
<b>Т.Т. Бердиев, С.Қ.Очилов, О.Г. Қорабеков.</b> Органик дехқончилик юритилганда кузги буғдой экинини биологик кўрсаткичлари ва маҳсулдорлиги.	357
<b>М.Турғунов, М.Мамаджонова, М.Олимжонова, А.Норинов.</b> Такрорий экинларни кўчат қалинлигига боғлиқ ҳолда тупрокда илдиз-анғиз қолдириши.	359
<b>Ф.Ш.Худойбердиев, Р.М. Музафаров.</b> Яйлов ўсимликларининг ҳосилдорлигини аниқлаш.	361



<b>Б.И.Жабборов, З.Н.Тилакова.</b> Тупрокни инсон ҳаётидаги роли.	363
<b>К.А.Муталов.</b> Белобоялышевая ( <i>Salsola Arbusculae</i> ) и Сингреновая ( <i>Astragalus Villosissimus</i> ) формация Юго-Западного Кызылкума.	365
<b>С.С.Хайриев, Ж.Ж.Жумаев.</b> Бухоро воҳасининг тупрок иқлим шароитида маҳаллий ва хорижий давлатлардан келтирилган ғўза навларининг ривожланиши ва афзаллик томонлари.	368
<b>Г.Э.Оразбайева.</b> Ғўзада табиий барг тўкиш хусусиятининг ирсийланиши ва морфохўжалик белгилари билан боғланиши.	370
<b>Ш.Адизов, С.Бобожонов, Қ.Мухаммадов, З.Қаландарова.</b> Тупрок унумдорлигини ошириш чора-тадбирлари.	373
<b>Ғ.Ғ.Ҳамроев, С.С.Тўраев.</b> Бухоро вилояти шароитида тупрок юза катламини текислба зичловчи қурилма тавсифи.	374
<b>Ш.Х.Тўхтаев, Б.Турсунов.</b> Ғўза ўргимчакканасига қарши таркибида “ <i>SFM</i> ” сакловчи олтингугуртнинг янги қўллаш шакллариининг самарадорлиги.	377
<b>Ж.У.Абдуллаев, Я.Буриев.</b> Такрорий ва сидерат экинларни тупрокнинг агрономик хоссаларига таъсири.	378
<b>Б.И.Норматов, М.А.Зупаров.</b> Ун-шудринг касаллигига тут навларининг чидамлилиги.	380
<b>Х.К.Намозов.</b> Горные коричневые карбонатные почвы юга Центральной Азии.	382
<b>Б.Қ.Атоев.</b> Кузги буғдой қурук массасини шаклланишида ўғитнинг роли.	388
<b>А.Тўхтақўзиев, А.Н.Муртазоев.</b> Бўйлама пол ҳосил қилишда тупрокнинг корпус ағдаргич сирти бўйлаб ҳаракат троекторияси аниқлаш методикаси ва тажриба натижалари.	392
<b>Ш.Я.Сагаторов, Ф.Шарипова</b> <i>AUTOCAD CIVIL 3D</i> дастурли таъминотида нивелирлаш натижаларини қайта ишлаш.	394
<b>М.А.Сирождин.</b> Ўзбекистон доривор ўсимликларини тадқиқ қилиш. <i>Cistanche salsa (c.a.mey.) Beck.</i> Мисолида.	397
<b>З.Ж.Исомиддинов.</b> Сур тусли қўнғир тупроқлари ва пиёз ( <i>Allium Cepa l.</i> ) нинг элемент таркиби.	399
<b>Н.Н.Ўразматов.</b> Тупрок намлигига чигит экиш усуллари, тизимлари ва кўчат қалинликларининг таъсири.	400
<b>Г.Т.Зарипов</b> Технология переработки вторичных ресурсов пивоваренного производства.	403
<b>Э.Д. Ниёзов, Ш.М.Ахмедова.</b> Исследование изменения надмолекулярной структуры крахмала при карбоксиметилировании.	404
<b>С.Т.Санаев, И.И.Раҳматов.</b> Такрорий муддатдаширин маккажўхори ўстириш	406
<b>Х.Намозов, А.Хожасов, А.Корахонов, М.Хожасов.</b> Мелиорации почв приаральского дельта	408
<b>Ш.Х.Тухтаев, А.А.Илёсов, Ф.А.Ганиева, Ф.Ш.Тухтаева.</b> Влияние которана 80% с.п. на вредителей почвы (озимой совке).	413
<b>Ш.Х. Тухтаев, Я. М. Ярашова.</b> Изучение влияние внесение гербицидов на подгрозющих совки и почвенныеэнтомофаги	415
<b>Ғофиров А.Ж</b> Кузги буғдойнинг экиш услининг дон ҳосилдорлигига таъсири	416